

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov

akademiyasi Kengashi raisi



H-M.Isoqov

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi
Odil sudlov akademiyasi Kengashi majlisining
5-son BAYONNOMASI**

2025 yil 6 noyabr

Toshkent shahri

Raislik etuvchi:

H-M.Isoqov yu.f.n., professor – Odil sudlov akademiyasi Kengashi raisi.

Ishtirok etdilar:

Odil sudlov akademiyasi Kengashining a'zolari:
DSc, professor D.U.Aripov, yu.f.d., professor
I.I.Nasriyev, yu.f.d., professor B.Samarxodjaev.
onlayn tarzda (Zoom orqali): A.Jalilov, yu.f.n.,
dotsent M.P.Qalandarova, yu.f.d., professor
V.Y.Kolenko, yu.f.d., professor M.Rahmonqulov,
Sh.Polvonov. yu.f.n., dotsent S.B.Xolbayev,
akdemik A.Saidov, yu.f.d., professor. A.Gafurov

Kengash kotibi – yu.f.f.d (PhD), F.Madiyev.

**Majlisga taklif
etilganlar:**

Odil sudlov akademiyasi tarkibiy tuzilmalari
rahbarlari.

KUN TARTIBI:

1. Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchilari Malika Shahobidinovna Shukurova va Sardorjon Sobirjon o'g'li Odilovning dissertatsiya mavzusini o'zgartirish.

2. Odil sudlov akademiyasi o'qituvchilaridan Erkin Kuchkarbayevich Sabirov va Zafarjon Raxmonaliyevich Omonovlarning dotsent vazifasini bajaruvchi unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

3. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqish;

Raislik etuvchi kun tartibidagi **birinchi masala** yuzasidan soʻzlab, Ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish boʻlimi bosh mutaxassisi K.Mirshayevaga berdi.

K.Mirshayeva: Assalomu alaykum hurmatli Odil sudlov akademiyasi Kengashi aʼzolari, hurmatli Raislik etuvchi.

Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov taʼkidlaganidek, Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchilari Shukurova Malika Shahobidinovna va Odilov Sardorjon Sobirjon oʻgʻlilarning dissertatsiya mavzusini oʻzgartirish yuzasidan murojaatlari kelib tushgan. Ruxsat bersangiz mustaqil izlanuvchilar tomonidan tadqiqot mavzusini oʻzgartirish taklifi bilan tanishtirsam.

Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi Shukurova Malika Shahobidinovnaning hozirgi mavzusi: “Xalqaro xususiy huquqda nikohni bekor qilishning oʻziga xos xususiyatlari” boʻlib, ushbu mavzuni “Xalqaro xususiy huquqda nikohdan ajratishni tartibga solishni takomillashtirish” nomlashni taklif etgan, ikkinchi mustaqil izlanuvchisi Odilov Sardorjon Sobirjon oʻgʻlining dissertatsiya mavzusi “Shaxsiy huquqlarni taʼminlashning jinoyat-protsessual mexanizmlarini takomillashtirish” boʻlib, “Shaxsiy daxlsizlik huquqini taʼminlashning jinoyat protsessual mexanizmlarini takomillashtirish” deb oʻzgartirishni taklif qilingan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2017-yildagi 304-sonli “Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qaroriga muvofiq, kollegial organ qarorida mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari tasdiqlanadi deb belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Shukurova Malika Shahobidinovnaning tadqiqot mavzusini “Xalqaro xususiy huquqda nikohdan ajratishni tartibga solishni takomillashtirish” va Odilov Sardorjon Sobirjon oʻgʻlining dissertatsiya mavzusini “Shaxsiy daxlsizlik huquqini taʼminlashning jinoyat protsessual mexanizmlarini takomillashtirish” deb tasdiqlab berishlaringizni soʻrayman.

K.Mirshayeva oʻz fikrlarini yakunlagandan soʻng, raislik etuvchi Kengash aʼzolaridan mazkur masala yuzasidan qanday qoʻshimcha taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar boʻlmasa, Shukurova Malika Shahobidinovnaning tadqiqot mavzusini “Xalqaro xususiy huquqda nikohdan ajratishni tartibga solishni takomillashtirish” va Odilov Sardorjon Sobirjon oʻgʻlining dissertatsiya mavzusini “Shaxsiy daxlsizlik huquqini taʼminlashning jinoyat protsessual mexanizmlarini takomillashtirish” deb nomlashni tasdiqlash taklifini kiritib, ochiq ovozga qoʻydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qoʻyilgan masala Kengash aʼzolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan soʻng, Kengash

QAROR QILDI:

1. K.Mirshayevaning Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchilari Shukurova Malika Shahobidinovna va Odilov Sardorjon Sobirjon oʻgʻlilarning dissertatsiya mavzusini oʻzgartirish yuzasidan bergan axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchilari Shukurova Malika Shahobidinovnaning dissertatsiya mavzusi “Xalqaro xususiy huquqda nikohdan ajratishni tartibga solishni takomillashtirish” va Odilov Sardorjon Sobirjon o‘g‘lilarning dissertatsiya mavzusi “Shaxsiy daxlsizlik huquqini ta’minlashning jinoyat protsessual mexanizmlarini takomillashtirish” deb o‘zgartirilsin.

3. Qaror ijrosini ta’minlash Ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi K.Mirshayeva zimmasiga yuklatilsin.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi **ikkinchi masala** yuzasidan, so‘zni ma’lumot berish uchun **K.Mirshayeva** berdi.

K.Mirshayeva: Assalomu alaykum hurmatli Odil sudlov akademiyasi Kengashi a‘zolari, hurmatli Raislik etuvchi. Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov ta’kidlaganidek, Odil sudlov akademiyasi professor-o‘qituvchilari Sabirov Erkin Kuchkarbayevich va Omonov Zafarjon Raxmonaliyevichlar dotsent vazifasini bajaruvchi unvoniga o‘z nomzodini ilgari surgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-apreldagi “Ilmiy unvonlar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2793-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan “Ilmiy unvonlar berish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga murojaat qiladigan bo‘lsak, ushbu Nizomning 12(g)-bandiga ko‘ra, professor ilmiy unvonini olish uchun kamida bir o‘quv yili davomida ta’lim muassasasining shtatida kafedra mudiri, professor (vazifasini bajaruvchi), oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida kafedra boshlig‘i o‘rinbosari yoki kafedra boshlig‘i lavozimlarida yoki ushbu lavozimlardan birida bir o‘quv yili davomida kamida 0,25 stavka o‘quv yuklamasini bajargan holda pedagogik faoliyat olib borayotgan muassasa rektori (direktori, boshlig‘i), prorektori (direktor o‘rinbosari, boshliq o‘rinbosari), ilmiy kotibi, ta’lim muassasasining o‘quv-tashkiliy tuzilmasi (fakultet, bo‘lim) rahbari lavozimlarining birida muvaffaqiyatli ishlab kelayotgan (lavozimida ijobiy o‘zgarish bo‘lgan hollarda avvalgi lavozimida ishlash muddati ham e’tiborga olinadi) mutaxassislariga beriladi.

Nizomning ushbu talabidan kelib chiqqan holda, Sabirov Erkin Kuchkarbayevich va Omonov Zafarjon Raxmonaliyevichlar kamida bir o‘quv yili davomida ta’lim muassasasining shtatida professor vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat ko‘rsatishi lozim bo‘ladi.

K.Mirshayeva o‘z fikrini yakunlagandan so‘ng, raislik etuvchi mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so‘rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a‘zolariga murojaat qildi. Ushbu masala yuzasidan Kengash a‘zolari tomonidan qo‘shimcha fikr va mulohazalar bo‘lmadi.

Shundan so‘ng, Raislik etuvchi yuqorida qayd etilgan talabdan kelib chiqqan holda Kengash a‘zolaridan Akademiya professor-o‘qituvchilaridan Sabirov Erkin

Kuchkarbayevich va Omonov Zafarjon Raxmonaliyevichlar dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etishni yoqlab ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILADI:

1. K.Mirshayevaning Odil sudlov Akademiya professor-o'qituvchilaridan Sabirov Erkin Kuchkarbayevich va Omonov Zafarjon Raxmonaliyevichlarni dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etish haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Odil sudlov Akademiya professor-o'qituvchilaridan Sabirov Erkin Kuchkarbayevich va Omonov Zafarjon Raxmonaliyevichlar dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etilsin va tegishli tartibda buyruq bilan rasmiylashtirilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash Ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi K.Mirshayeva zimmasiga yuklatilsin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov kun tartibidagi **uchinchi masala** yuzasidan so'z olib, majlis ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjayevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqilishi uchun kengashga raislik qilishni kengash a'zosi D.Aripovga vaqtincha Kengashga rahbarlik qilib turish Kengashning 24.010.2025-yildagi yig'ilishida tasdiqlanganligini eslatib, kun tartibidagi uchunchi masalani ko'rib chiqishda uchun D.Aripovga so'z berdi.

D.Aripov: Assalomu alaykum hurmat kengash a'zolari!

Kun tartibidagi uchinchi masala muhokama qilish uchun kengashda a'zosi bo'lmagan va ovoz berish ishtirok etishi mumkin bo'lmagan tartikibiy bo'linma rahbarlarini majlisda ishtirok etmasligini so'radi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi B.B.Samarxodjayevdan biror fikr mulohazalari bo'lsa, muhokama qilishdan oldin berish mumkinligini so'radi.

B.B.Samarxodjayev hozirda fikrlari yo'qligini lekin Kengash qaroriga qarab, o'zining fikrini bildirishini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, Kengash muhokamisini boshlash uchun B.B.Samarxodjayev yig'ilishni vaqtincha tark etishni so'radi.

Raislik etuvchi D.Aripov B.Samarxodjayevning murojaatini bo'yicha yakuniy to'xtamga kelish uchun majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolaridan qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lsa bildirishi mumkinligini ma'lum qildi.

Sh.Polvonov B.Samarxodjaevning murojaatini bo'yicha atroflicha muhokama qilib bo'linganini, shu bois, uning murojaatini qanoatlantirish yoki rad etishdan oldin, uning o'zi va Akademiya rahbariyati o'zaro kelishuv yo'li bilan nizoni hal qilishi muvofiqligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, so'z olgan M.P.Qalandarova va K.V.Yevgeniyalar ham ayni shu mazmundagi fikrni bayon qildi.

Raislik qiluvchi mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi D.Aripov B.Samarxodjaev bilan Akademiya rahbariyati o'rtasida nizoni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish masalasini ko'rib chiqish uchun keyingi kengash majlisiga qadar qoldirib turish lozimligini ma'lum qilib, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Raislik etuvchi Kengash a'zolaridan B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqishni keyingi Kengash yig'lishiga qoldirish yuzasidan ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -10 ta; qarshilar - 0; betaraflar - 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati ko'rib chiqish va qaror qabul qilish navbatdagi yig'ilish muhokamasiga qoldirilsin.

Kengash kotibi:



F.Madiyev